



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
FARMOYISHI

2025-yil 24-mart

18-4-0-F/25

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta‘minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligi sohasini ilmiy-metodik ta‘minlash, yo‘llarda eksplutatsiya-montaj faoliyatini tartibga solish hamda “Xavfsiz yo‘l” indeksini yuritish amaliyotini joriy etish to‘g‘risida”gi 415-son qarorining lariga muvofiq viloyatda yo‘l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash bo‘yicha “Xavfsiz yo‘l” indeksini yuritish metodologiya”si talablarini bajarish va yo‘l harakatini tashkil etish borasida amaldagi vaziyatga to‘g‘ri va haqqoniy baho berilishini ta‘minlash maqsadida:

1. Qashqadaryo viloyatida yo‘l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash, “Xavfsiz yo‘l” indeksini yuritish bo‘yicha ishchi guruh shtabi (keyingi o‘rinlarda – viloyat shtabi) tarkibi 1-ilovaga;

viloyat hududida yo‘l harakatini samarali tashkil etish holatini baholashbo‘yicha “Xavfsiz yo‘l” indeksi yuritilishini muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhlari (keyingi o‘rinlarda-muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhi) 2-ilovaga;

viloyat tuman va shaharlarida yo‘l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash bo‘yicha “Xavfsiz yo‘l” indeksini yurituvchi tuman(shahar) ishchi guruhlari (keyingi o‘rinlarda-Ishchi guruh) 3-ilovaga;

shtab, muvofiqlashtiruvchi va tuman (shahar) ishchi guruhlarining vazifalari 4-ilovaga;

tuman (shahar) ishchi guruh a‘zolari tomonidan 29 ta indikator ko‘rsatkichlari bo‘yicha rasmiylashtiriladigan dalolatnomaning na‘munaviy shakli 5-ilovaga;

viloyat hududida yo‘l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash, “Xavfsiz yo‘l” indeksi natijalari bo‘yicha na‘munaviy hisobot shakli 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat shtabi (M.Azizov)ga mutasaddi idora va tashkilotlar bilan birgalikda:

muvofiglashtiruvchi ishchi guruhi, tuman (shahar) ishchi guruhlari faoliyatini samarali tashkil qilishda ko'maklashish;

viloyatda yo'l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash bo'yicha "Xavfsiz yo'l" indeksini yuritish bo'yicha haqqoniy ma'lumotlarning jamlanishini ta'minlash;

o'rganishlar davomida aniqlangan yo'l infratuzilmasi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilanib, mas'ul idora tashkilotlarga yozma ko'rsatma va taqdimnomalar kiritib borish;

amalga oshirilgan va yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklar, shuningdek, viloyat hududidan o'tuvchi avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash yuzasidan mas'ul mutasaddi idoralarning faoliyatini Shtab yig'ilishida muhokama qilib borish topshirilsin.

Ishchi guruh har chorak yakunidagi oyning 15-25-sanalarida joylarga chiqqan holda o'rganishlar o'tkazsin va namunadagi shaklda dalolatnoma hamda hisobotlarni shakllantirib, muvofiglashtiruvchi ishchi guruhga taqdim etib borish choralarini ko'sin.

3. Shahar va tuman hokimliklari:

uch kun muddatda 3-ilovadagi namunaviy tarkib asosida Yo'l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash bo'yicha (Xavfsiz yo'l indeksini yurituvchi tuman (shahar) ishchi guruhi faoliyatini yo'lga qo'ysin;

tuman (shahar) Ishchi guruhlari tomonidan joylarga chiqqan holda o'rganishlar o'tkazilib, dalolatnoma va hisobotlarni har chorak yakunini 25-sanasiga qadar muvofiglashtiruvchi ishchi guruhga taqdim etilishini ta'minlasin.

4. Mazkur farmoyish ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyati hokimining
2025-yil 24-martdagi
18-4-0-F/25-son farmoyishiga
1-ilova

**Viloyat hududida yo‘l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash,
“Xavfsiz yo‘l” indeksini yuritish bo‘yicha ishchi guruhi shtabi**

T A R K I B I

- | | |
|----------------|--|
| M.G'.Azizov | - viloyat hokimining o‘rinbosari, shtab boshlig‘i |
| A.S.Ismoilov | - viloyat ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘i- shtab boshlig‘i o‘rinbosari |
| N.Sh.Namazov | - viloyat transport boshqarmasi boshlig‘i- shtab boshlig‘i o‘rinbosari |
| F.M.Mirzayev | - viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i |
| R.X.Dustmatov | - viloyat ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari — jamoat xavfsizligi xizmati boshlig‘i |
| S.S.Nuriyev | - viloyat adliya boshqarmasi boshlig‘i |
| U.S.Oripov | - viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i |
| O.P.Ravshanov | - O‘zbekiston Respublikasi Mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig‘i |
| S.K.Aripov | - Raqamli texnologiyalar vazirligining hududiy bo‘linmasi rahbari |
| B.T.To‘rayev | - viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi boshlig‘i |
| J.T.To‘ychiyev | - viloyat teleradiokompaniyasi direktori |
| I.T.Idirov | - yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i, shtab kotibi |

Qashqadaryo viloyati hokimining
2025-yil 24-martdagi
18-4-0-F/25-son farmoyishiga
2-ilova

**Viloyat hududida yo‘l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash
bo‘yicha “Xavfsiz yo‘l” indeksi yuritilishini muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhi**

T A R K I B I

- | | |
|-----------------|--|
| S.S.Toshev | - Qashqadaryo viloyati hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha kotibiyat mudiri, ishchi guruh rahbari |
| S.S.Shodmonov | - viloyat IIBB YHXB boshlig‘ining o‘rinbosari |
| O.Sh.Xayitov | - viloyat transport boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari |
| I.K.Yusupov | - viloyat yo‘llardan muntazam foydalanish davlat muassasasi mutaxassisi |
| F.U.Bazorov | - Qashqadaryo viloyati maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari |
| B.Q.Fayziyev | - viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi bosh muhandisi |
| N.R.Rayimqulov | - O‘zbekiston Respublikasi Mahallalar uyushmasi viloyat boshqarmasi mas‘ul xodimi |
| F.O.Normo‘minov | - viloyat IIBB YHXB MEMB boshlig‘i |
| A.H.Tursunov | - viloyat IIBB YHXB ma‘muriy amaliyot bo‘limi boshlig‘i |
| O.O.Mardonov | - viloyat IIBB YHXB axborot texnologiyalari guruhi yetakchi mutaxassisi |
| J.B.Shukurov | - viloyat yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi maxsus komissiya yetakchi mutaxassisi, Ishchi guruh kotibi |

Qashqadaryo viloyati hokimining
2025-yil 24-martdagi
18-4-0-F/25-son farmoyishiga
3-ilova

**Viloyat tuman va shaharlarida yo‘l harakatini samarali tashkil etish holatini
baholash hamda “Xavfsiz yo‘l” indeksini yuritish bo‘yicha ishchi guruhlarini**

T A R K I B I

Qarshi shahri bo‘yicha

- F.O.Do‘stmurodov - Qarshi shahar hokimining o‘rinbosari
M.Y.Yuldoshev - Qarshi shahar IIB yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi boshlig‘i
S.M.Valiyev - IIB JXX YHXB YITNQB muhandisi (biriktirilgan sektori bo‘yicha)
I.Boymurodov - Qarshi shahar obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i
B.N.Mo‘minov - Qarshi shahar maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi boshlig‘i
I.S.Boyev - Qarshi shahar YFDM direktori
N.X.Xonqulova - Mahallalar uyushmasi Qarshi shahar bo‘limi boshlig‘i

Qarshi tumani bo‘yicha

- A.U.Mamadiyev - Qarshi tumani hokimining o‘rinbosari
B.Q.Yusupov - Qarshi tuman IIB yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi boshlig‘i
R.A.Hasanov - viloyat IIB JXX YHXB YITNQB muhandisi (biriktirilgan kurotirlik)
D.Daminov - Qarshi tumani obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i
A.P.Eshonqulov - Qarshi tumani maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi boshlig‘i
A.A.Imomov - Qarshi tumani YFDM direktori
O.Q.Raxmonov - Mahallalar uyushmasi Qarshi tumani bo‘limi boshlig‘i

G‘uzor tumani bo‘yicha

- F.B.Kichkinayev - G‘uzor tumani hokimining o‘rinbosari
Sh.A.Qo‘ziyev - G‘uzor tuman IIB yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi boshlig‘i
S.M.Valiyev - viloyat IIB JXX YHXB YITNQB muhandisi (biriktirilgan kurotirlik)
G‘.Nazarov - G‘uzor tumani obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i
A.R.Tilavov - G‘uzor tumani maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi boshlig‘i
J.X.Nurmanov - G‘uzor tumani YFDM direktori
B.R.Ne‘matov - Mahallalar uyushmasi G‘uzor tumani bo‘limi boshlig‘i

Koson tumani bo‘yicha

- M.B.Djurayev - Koson tumani hokimining o‘rinbosari

- Sh.P.Xolmatov - Koson tuman IIB yo'l harakati xavfsizligi bo'limi boshlig'i
M.X.Sherdanov - viloyat IIB JXX YHXB YITNQB muhandisi (biriktirilgan kurotirlik)
X.To'rayev - Koson tumani obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i
A.N.Tursunov - Koson tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i
S.A.Axadilloev - Koson tumani YFDM direktori
U.A.Ochilov - Mahallalar uyushmasi Koson tumani bo'limi boshlig'i

Yakkabog' tumani bo'yicha

- E.T.Beknaye - Yakkabog' tumani hokimining o'rinbosari
N.B.Murodov - Yakkabog' tuman IIB yo'l harakati xavfsizligi bo'limi boshlig'i
B.T.Pirnazarov - viloyat IIB JXX YHXB YITNQB muhandisi (biriktirilgan kurotirlik)
S.Suyunov - Yakkabog' tumani obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i
J.O'.Eshquvatov - Yakkabog' tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i
U.Q.Fayziyev - Yakkabog' tumani YFDM direktori
S.G'.Avlayev - Mahallalar uyushmasi Yakkabog' tumani bo'limi boshlig'i

Shahrisabz tumani bo'yicha

- X.Turayev - Shahrisabz tumani hokimining o'rinbosari
Sh.I.Isaxonov - Shahrisabz tuman IIB yo'l harakati xavfsizligi bo'limi boshlig'i
Sh.A.Niyozov - viloyat IIB JXX YHXB YITNQB muhandisi (biriktirilgan kurotirlik)
J.Turdiyev - Shahrisabz tumani obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i
Sh.E.Botirov - Shahrisabz tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i
H.X.Ixtiyorov - Shahrisabz tumani YFDM direktori
A.A.Jo'rayev - Mahallalar uyushmasi Shahrisabz tumani bo'limi boshlig'i

Chiroqchi tumani bo'yicha

- B.X.Norqobilov - Chiroqchi tumani hokimining o'rinbosari
E.G'.Qo'ziyev - Chiroqchi tuman IIB yo'l harakati xavfsizligi bo'limi boshlig'i
B.T.Pirnazarov - viloyat IIB JXX YHXB YITNQB muhandisi (biriktirilgan kurotirlik)
B.Abdullayev - Chiroqchi tumani obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i
F.K.Jumanov - Chiroqchi tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i
J.A.Avlayorov - Chiroqchi tumani YFDM direktori

B.Q.Xoliyorov - Mahallalar uyushmasi Chiroqchi tumani bo'limi boshlig'i

Qamashi tumani bo'yicha

Q.X.Haydarov - Qamashi tumani hokimining o'rinbosari

X.Xayrullayev - Qamashi tuman IIB yo'l harakati xavfsizligi bo'limi boshlig'i

Sh.S.Abdikarimov viloyat IIB JXX YHXB YITNQB muhandisi (biriktirilgan kurotirlik)

Sh.Ismatullayev - Qamashi tumani obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i

N.Q.Abrayeva - Qamashi tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i

Sh.X.Almardanov - Qamashi tumani YFDM direktori

Sh.A.Bekmurzayev - Mahallalar uyushmasi Qamashi tumani bo'limi boshlig'i

Kitob tumani bo'yicha

F.S.Usmonov - Kitob tumani hokimining o'rinbosari

Sh.X.Otaqulov - Kitob tuman IIB yo'l harakati xavfsizligi bo'limi boshlig'i

Sh.A.Niyozov - viloyat IIB JXX YHXB YITNQB muhandisi (biriktirilgan kurotirlik)

I.Xalimov - Kitob tumani obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i

M.J.Kenjaye - Kitob tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i

T.Ochilov - Kitob tumani YFDM direktori

A.G'.Sirojov - Mahallalar uyushmasi Kitob tumani bo'limi boshlig'i

Kasbi tumani bo'yicha

T.X.Tursunov - Kasbi tumani hokimining o'rinbosari

A.A.Mirzayev - Kasbi tuman IIB yo'l harakati xavfsizligi bo'limi boshlig'i

M.X.Sherdanov - viloyat IIB JXX YHXB YITNQB muhandisi (biriktirilgan kurotirlik)

O'.Toshtemirov - Kasbi tumani obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i

A.G'.Suyunov - Kasbi tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i

O.M.Siddikov - Kasbi tumani YFDM direktori

Sh.Y.Bo'riyev - Mahallalar uyushmasi Kasbi tumani bo'limi boshlig'i

Dehqonobod tumani bo'yicha

O.R.Boyto'rayev - Dehqonobod tumani hokimining o'rinbosari

U.B.Allayorov - Dehqonobod tuman IIB yo'l harakati xavfsizligi bo'limi boshlig'i

S.M.Valiyev - viloyat IIB JXX YHXB YITNQB muhandisi (biriktirilgan kurotirlik)

E.Usmonov - Dehqonobod tumani obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i

X.R.Mengliyev - Dehqonobod tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i

- Q.Bo'riyev - Dehqonobod tumani YFDM direktori
B.K.Amonov - Mahallalar uyushmasi Dehqonobod tumani bo'limi boshlig'i

Nishon tumani bo'yicha

- Z.A.Aramov - Nishon tumani hokimining o'rinbosari
F.Sh.Mamatov - Nishon tuman IIB yo'l harakati xavfsizligi bo'limi boshlig'i
R.A.Hasanov - viloyat IIB JXX YHXB YITNQB muhandisi (biriktirilgan kurotirlik)
Sh.Tursunov - Nishon tumani obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i
J.K.Xolmurodov - Nishon tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i
A.A.Xalilov - Nishon tumani YFDM direktori
- Mahallalar uyushmasi Nishon tumani bo'limi boshlig'i

Mirishkor tumani bo'yicha

- A.Sh.Eshmurodov - Mirishkor tumani hokimining o'rinbosari
J.N.Shamsiddinov - Mirishkor tuman IIB yo'l harakati xavfsizligi bo'limi boshlig'i
R.A.Hasanov - viloyat IIB JXX YHXB YITNQB muhandisi (biriktirilgan kurotirlik)
L.Xidirov - Mirishkor tumani obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i
B.Q.Shodiyev - Mirishkor tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i
A.A.Xalilov - Mirishkor tumani YFDM direktori
B.U.Sariyev - Mahallalar uyushmasi Mirishkor tumani bo'limi boshlig'i

Muborak tumani bo'yicha

- A.A.Rasulov - Muborak tumani hokimining o'rinbosari
F.J.Haydarov - Muborak tuman IIB yo'l harakati xavfsizligi bo'limi boshlig'i
M.X.Sherdanov - viloyat IIB JXX YHXB YITNQB muhandisi (biriktirilgan kurotirlik)
I.Irisov - Muborak tumani obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i
I.O.Usmonov - Muborak tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i
B.Eshnayevev - Muborak tumani YFDM direktori
Z.H.Nasimov - Mahallalar uyushmasi Muborak tumani bo'limi boshlig'i

Ko'kdala tumani bo'yicha

- O'.T.Abduraximov - Ko'kdala tumani hokimining o'rinbosari
K.O.Normo'minov - Ko'kdala tuman IIB yo'l harakati xavfsizligi bo'limi boshlig'i
Sh.S.Abdikarimov - viloyat IIB JXX YHXB YITNQB muhandisi (biriktirilgan

- kurotirlik)
- M.Sayfiyev - Ko'kdala tumani obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i
 - E.Z.Baymurodov - Ko'kdala tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i
 - A.N.Annaqulov - Ko'kdala tumani YFDM direktori
 - A.M.Nuriyev - Mahallalar uyushmasi Ko'kdala tumani bo'limi boshlig'i

Shahrisabz shahri bo'yicha

- U.N.Abdusalimov - Shahrisabz shahar hokimining o'rinbosari
- D.Z.Toshpo'latov - Shahrisabz shahar IIB yo'l harakati xavfsizligi bo'limi boshlig'i
- Sh.A.Niyozov - viloyat IIB JXX YHXB YITNQB muhandisi (biriktirilgan kurotirlik)
- N.Po'latov - Shahrisabz shahar obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i
- Sh.X.Islamov - Shahrisabz shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i
- H.X.Ixtiyorov - Shahrisabz shahar YFDM direktori
- J.A.Boboyev - Mahallalar uyushmasi Shahrisabz shahar bo'limi boshlig'i

Izoh. Viloyat tuman va shaharlarida yo'l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash hamda "Xavfsiz yo'l" indeksini yuritish bo'yicha ishchi guruhlar a'zolari boshqa ishga o'tganida ishchi guruh tarkibiga tegishli lavozimlarga yangi tayinlangan yoki mazkur lavozim vazifalarini bajarilishi yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

Shtab, muvofiqlashtiruvchi va tuman(shahar) ishchi guruhlarining vazifalari

Ishchi guruh shtabining asosiy vazifalari:

yo'l harakati xavfsizligi sohasida fuqarolarning hayoti va sog'ligini ishonchli himoya qilish, yo'l infratuzilmasini xavfsizlik talablariga to'liq javob berishini ta'minlash;

hududlarda yo'l harakatini samarali tashkil etish holatini muntazam ravishda baholab borish, ushbu sohada davlat organlari va mahalliy hokimliklarning manzilli faoliyat ko'rsatishini nazorat qilish;

yo'l-transport hodisalari sabablarini chuqur o'rganish, yo'llarning xavfli avariya uchastkalari ro'yxatini tasdiqlash orqali kelgusida ularning oldini olish yuzasidan ilmiy asoslantirilgan takliflar tayyorlash tizimini yaratish;

yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, inson omili va korrupsiya holatlarini istisno etuvchi avtomatlashtirilgan nazorat tizimlarini ommalashtirishga doir tadbirlarni belgilash;

hududlarda yo'l infratuzilmasini yaxshilash, yo'l-transport hodisalarining sonini qisqartirish bo'yicha dasturlar loyihalari ishlab chiqilishini tashkillashtirish va kelishish;

Maxsus komissiya qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa vazifalarni ham amalga oshiradi.

Muvofiqlashtiruvchi guruhning asosiy vazifalari:

tuman-shaharlarda tashkil etilgan ishchi guruhlardan dalolatnoma va hisobotlarni o'z vaqtida qabul qilib jamlash;

olingan ma'lumotlarni umumlashtirib, **29 ta** indikatorlar orqali yo'l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash bo'yicha "Xavfsiz yo'l" indeksi ko'rsatkichlarini shakllantirish;

indeks ko'rsatkichlari orqali tuman-shaharlardagi yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha amaldagi holatni "qizil", "sariq" va "yashil" toifalarga ajratish;

indeks bo'yicha yakuniy ko'rsatkichlarni yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha viloyat maxsus komissiyalariga muhokama uchun taqdim etib, respublika maxsus komissiyasiga axborot berish;

“Xavfsiz va ravon yo'l” umummilliy dasturi bo'yicha yo'l infratuzilmasini kompleks takomillashtirish parametrlari bajarilishini monitoring qilish va hisobotlarni respublika maxsus komissiyasiga taqdim etish;

“Xavfsiz va ravon yo'l” umummilliy dasturi ijrosi va yo'l infratuzilmasi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilanib, mas'ul idora va tashkilotlarga yozma ko'rsatma va taqdimnomalar kiritish;

indeks yakuniy natijalari bo'yicha amalga oshirilgan hamda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, shuningdek, viloyat hududidan o'tuvchi avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash yuzasidan mas'ul mutasaddi tashkilotlarning faoliyati xususidagi tahliliy ma'lumotlarni jamlash va maxsus komissiya yig'ilishida muhokama qilish uchun kiritish;

tuman-shaharlardagi ishchi guruh tomonidan taqdim etilgan dalolatnoma va hisobotlar haqqoniyligini joylarga chiqqan holda o'rganish va aniqlangan kamchilikliklar yuzasidan maxsus komissiya raisiga axborot kiritib borish;

sodir etilgan yo'l transport hodislarining sabablarini o'rganish va yo'l infratuzilmasi bilan bog'liq muammolar va aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tegishli tashkilotlarga taqdimnomalar kiritib borish.

Ishchi guruhning asosiy vazifalari:

umumfoydalanishdagi avtomobil yo'llari hamda shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko'chalari, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llari ro'yxatini shakllantirib, ta'mirtalab yo'llarni, trotuar, veloyo'lak hamda sun'iy yoritish zarur bo'lgan yo'l qismlarini aniqlash;

yo'l elementlari (yo'l belgi, sun'iy notekslik, masofa ko'rsatuvchi yo'l belgilari, svetofor qurilmalari, yo'l yotiq chiziqlari, ajratuvchi to'siqlar, yo'naltiruvchi ustunchalar) bilan jihozlanganlik darajasini aniqlash;

piyodalar o'tish joylarini svetofor, yo'l belgi, yo'l yotiq chiziqlari, sun'iy yoritilganligini o'rganish;

maktabgacha va maktab ta'lim tashkilotlari atrofida yo'l harakati xavfsizligini tashkil etilganligini (piyodalar o'tish joyi, trotuar, svetofor, tegishli yo'l belgilari, yo'l yotiq chiziqlari mavjudligi hamda kamera bilan jihozlanganligi) o'rganish;

hududda joylashgan korxona va tashkilotlarda yo'l harakati qoidalariga rioya etilishi holati bo'yicha monitoring olib borish;

video kuzatuv vositalari bilan jihozlanganligi va qoidabuzarliklarni aniqlovchi moslamalar bilan ta'minlanganligini o'rganish;

yo'l transporti hodisalari tahlilini yuritgan holda natijalari bo'yicha avariya o'choqlarini belgilash;

transport harakatini o'rganish orqali tirband ko'cha va yo'llarni aniqlash choralarini ko'rish;

“Xavfsiz va ravon yo'l” umummilliy dasturi bo'yicha yo'l infratuzilmasini kompleks takomillashtirish parametrlari bajarilishini monitoring qilish va hisobotlarini muvofiqlashtiruvchi guruhga taqdim etish;

sodir etilgan yo'l transport hodislarini sabablarini o'rganish va yo'l infratuzilmasi bilan bog'liq muammolar va aniqlangan avariya o'choqlarni bartaraf etish choralarini ko'rish;

Ishchi guruh tomonidan mazkur xizmat vazifasida ko'rsatilgan barcha bandlar bo'yicha chorak yakuni uchun belgilangan muddatdan (31-mart, 31-may, 31-avgust, 30-noyabr) yakuniy tahliliy hisobotlarni muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhiga taqdim etib borishni ta'minlaydi.

Qashqadaryo viloyati hokimining
2025-yil 24-martdagi
18-4-0-F/25-son farmoyishiga
5-ilova

Qashqadaryo viloyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-iyul kundagi "Yo'l harakati xavfsizligi sohasini ilmiy-metodik ta'minlash, yo'llarda ekspluatatsiya-montaj faoliyatini tartibga solish hamda "Xavfsiz yo'l" indeksini yuritish amaliyotini joriy etish to'g'risida"gi 415-son qarori asosida tuman (shahar)larda yo'l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash bo'yicha "Xavfsiz yo'l" indeksini yuritish

D A L O L A T N O M A S I

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2022-yil 30-iyuldagi 415-son qarori** bilan har chorak yakunida keyingi oyning 15-kunigacha tuman (shahar)larda indeks doirasida yo'l infratuzilmasi va yo'l harakati qoidalariga rioya qilinishining holati maxsus komissiyalar tomonidan 29 ta indikator bo'yicha baholash metodologiyasi tasdiqlandi.

Metodologiyada har chorak yakunida keyingi oyning 15-kunigacha tuman (shahar)larda indeks doirasida yo'l infratuzilmasi va yo'l harakati qoidalariga rioya qilinishining holati maxsus komissiyalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-son qarorida belgilangan 29 ta indikator bo'yicha baholanadi va natijalari yig'ilish bayoni shaklida rasmiylashtirilishi belgilab berilgan.

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani hududi "Ishchi guruh" tomonidan 29 ta indikator bo'yicha baholash uchun o'rganilganda quyidagilar aniqlandi:

1. Yo'l infratuzilmasini tartibga keltirish bo'yicha:

1.1 Yo'l qoplamasining ahvoli.

Mahalliy ahamiyatga molik 4K193b "-----" avtomobil yo'lining 10-12 km oralig'ida yo'l qoplamasida chuqurchalar va yoriqlar mavjud.

Davlat ahamiyatiga molik D067 "Qarshi-Nishon" avtomobil yo'lining 25-30 km oralig'ida chuqurlar (to'lqinsimon do'nglik) mavjud.

1.2 Svetoforlarning mavjudligi.

Mahalliy ahamiyatga molik 30V012 “-----” avtomobil yo‘li bilan A.Navoiy ko‘chasi kesishgan tartibga solinmagan chorrahaga svetofor qurilmasi o‘rnatish zarur.

2. Yo‘llarni raqamlashtirish darajasi:

2.1. Mahalliy ahamiyatga molik 30V012 “-----” avtomobil yo‘li bilan A.Navoiy ko‘chasi kesishgan chorraha raqamlashtirilmagan.

3. Ta‘lim tashkilotlarining jixozlanganlik darajasi:

3.1. Tumandagi 31 ta maktabning 14 tasi jihozlangan.

4. Yo‘l-transport hodisalarini oldini olishda targ‘ibot ishlarini olib borish bo‘yicha:

4.1 Yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish bo‘yicha.

Qarshi tumani hokimining o‘rinbosari

J.S.Arashov

Qarshi tumani obodonlashtirish
boshqarmasi boshlig‘i

N.B.Xoshimov

Qarshi tumani YHXB boshlig‘i,
kapitan

B.Yusupov

Qarshi tumani avtomobil yo‘llari
bo‘limi boshlig‘i

Ya.T.Cho‘liyev

Qarshi tumani maktabgacha va
maktab ta‘lim bo‘limi boshlig‘i

B.B.Chulliyev

Qashqadaryo viloyati hokimining
2025-yil 24-martdagi
18-4-0-F/25-son farmoyishiga
6-ilova

Viloyat hududida yo'l harakatini samarali tashkil etish holatini baholash, "Xavfsiz yo'l" indeksi natijalari bo'yicha na'munaviy hisobot shakli

№	Shaxar-tuman	Axoli soni	Jami YTX	100 ming axoliga nisbatan	JK-266-2 q	100 ming axoliga nisbatan	Qoidabuzarlik soni	100 ming axoliga nisbatan	29 ta indikator bo'yicha jami to'plangan ball	Toifasi
1	Qarshi shahar	368 500	10	3	2	1	2 400	651	33	Sariq
2	Qarshi tumani	-	-	-	-	-	-	-	18	Qizil
3	G'uzor tumani	-	-	-	-	-	-	-	18	Qizil
4	Koson tumani	-	-	-	-	-	-	-	18	Qizil
5	Yakkabog' tumani	-	-	-	-	-	-	-	20	Qizil
6	Shahrisabz tumani	-	-	-	-	-	-	-	18	Qizil
7	Chiroqchi tumani	-	-	-	-	-	-	-	18	Qizil
8	Qamashi tumani	-	-	-	-	-	-	-	18	Qizil
9	Kitob tumani	-	-	-	-	-	-	-	18	Qizil
10	Kasbi tumani	-	-	-	-	-	-	-	18	Qizil
11	Dehqonobod tumani	-	-	-	-	-	-	-	18	Qizil
12	Nishon tumani	-	-	-	-	-	-	-	18	Qizil
13	Mirishkor tumani	-	-	-	-	-	-	-	18	Qizil
14	Muborak tumani	-	-	-	-	-	-	-	18	Qizil
15	Ko'kdala tumani	-	-	-	-	-	-	-	18	Qizil
16	Shahrisabz shahar	-	-	-	-	-	-	-	18	Qizil

- **100 ming axoliga nisbatan umumiy YTXlari viloyat ko'rsatkichidan ortib ketgan shahar va tumanlar:**

Qarshi va Shahrisabz shaharlari, Qarshi, G'uzor, Koson, Yakkabog', Shahrisabz, Chiroqchi, Qamashi, Kitob va Kasbi tumanlari.

- **100 ming axoliga nisbatan o'lim bilan bog'liq YTXlari viloyat ko'rsatkichidan ortib ketgan shahar va tumanlar:**

Dehqonobod, Nishon, Mirishkor, Muborak, Muborak va Ko'kdala tumanlari.

- **100 ming axoliga nisbatan qoidabuzarliklari soni viloyat ko'rsatkichidan ortib ketgan shahar va tumanlar:**

Viloyatning Qarshi va Kasbi tumanlaridan boshqa barcha shahar tumanlarida 100 ming aholiga nisbatan qoidabuzarliklar soni **600** tadan ortgan.

- Viloyatdagi 15 ta shahar va tumanlar 29 ta indikator bo'yicha sariq, **Qarshi shahri** yashil toifaga to'g'ri keldi.

**Qashqadaryo viloyat IIB JXX YHXB boshlig'i,
hududiy maxsus komissiya kotibi podpolkovnik**

I.T.Idirov